

UDK 37.012.001.76

## **MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASINI O'TKAZISH TARTIBI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

ass. D.B.Mirxodjaeva

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

*Muammoli ta'lim o'quvchi-talabalarning bilim tizimlari va aqliy hamda amaliy faoliyatlarida samarali o'zlashtirishga yordam beradi.*

*Проблемное обучение помогает эффективно усваивать знания и умственные способности, а также практические деятельности у студентов.*

*Enigmatic education helps students to acquire knowledgeable, intellectual, practical activity.*

Oliy o'quv yurtlarida o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishning muhim sharti mazkur jarayonga tizimli yondashuv sanaladi va o'qituvchilarga quyidagi dars turlari tavsiya etiladi;

1. Ma'ruza (kirish, mavzuli, umumlashtiruvchi) mashg'ulotlari;
2. Seminar (bilimlarni mustahkamlovchi, yangi bilimlarni mustaqil egallashga mo'ljallangan) darslari;
3. Modulli dars;
4. Muammoli (aqliy hujum) darslar;
5. Munozarali (ilmiy munozara va erkin fikrlash) darslar;
6. Didaktik–o'yinli (sujetli-rolli, ijodiy, ishbilarmonlar, anjumanlar, o'yin mashqlar) darslar;
7. Sinov (didaktik kartochkalar, test topshiriqlari, o'zaro nazorat varag'i yordamida EHM nazorat dasturlari vositasida o'tkaziladigan) darslari.

Mazkur darslarning o'ziga xos jihati dars davomida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarga asoslanadi.

Muammoli ta'lim deyilganda, o'qituvchi (pedagog) rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo o'quvchi-talabalarning mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi. Shuningdek, muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi (pedagog) tomonidan o'quvchi-talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalari, muammolari va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarishni tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Muammoli ta'limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq:

- o'quv materialini murakkablashtirish;
- o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish;
- ta'lim jarayonini o'yin, mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish;
- o'qituvchi (pedagog) tomonidan muammoli metodlardan o'z o'rnida samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish;
- muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda o'quvchi-talabalarga bayon etish.

Muammoli metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, o'quvchi-talabalarning muammoni hal etishi, murakkab savollarga javob topishi jarayonida alohida obyekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish ko'nikmalari va bilimlarini faollashtirishga asoslangan bolishi kerak [2].

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi, hamda o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish

zarur. O'qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikir yo'lidagi kutilmagan to'siq» bilan bog'langan aqliy mashaqqat holati emas, balki u bilish maqsadlarini maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilim yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog'liq bo'lmasligi, ya'ni yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog'lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo'lmaydi. Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda o'quvchi-talaba mashaqqat talab qilgan tushuncha yoki faktning unga avval va ayni vaqtda ma'lum bo'lgan vazifa, masala bo'yicha ichki yashirin aloqalarini anglab yetadi. Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

- o'quvchi-talabada notanish bo'lgan faktning mavjudligi;
- vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.

Muammoli vaziyatlarni hal etishda o'qituvchi (pedagog) o'quvchi-talabalar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari: tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo'naltiradi.

O'qituvchi (pedagog) muammoli ta'lim tizimida o'quvchi-talabalarning o'quv-izlanish faoliyatini shunday tashkil etadiki, ularning diqqati yuzaga kelgan qiyinchilik va kamchiliklarni hal etishga, turli axborotlarni mustaqil tahlil qilish, yechimini topish, umumlashtirish va xulosalar chiqarishga, olgan bilim va malakalarini keyingi duch keladigan vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilgan bo'lishi lozim. Demak, buning natijasida o'quvchi-talabalarda mustaqil fikr yuritish, bilim olish, yangidan-yangi maqsadlarni qo'yish, yangicha fikrlashni o'rganish hamda tafakkurining rivojlanishi va qobiliyatning shakllanishiga imkon beradi. O'quvchi-talabalar muammoli ta'lim jarayonida o'quv materiallarini muammoli vaziyat sharoitida o'rganishlari, tegishli ma'lumotlarni mustaqil tahlil qilishlari, berilgan o'quv masalalarini, farazlarini oldinga surib, ularni isbot qilish yo'llari bilan yechishlari, ta'lim jarayonini o'zlashtirishda aql bilan harakat qilishlari ularning intellektual faoliyatlarini oshiradi [1].

Muammoli darslarda o'qituvchining faoliyati, avvalo mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv muammolarini aniqlash, muammoli vaziyatlar tizimini yaratish, o'quvchi-talabalar oldiga o'quv muammolarini yuqori ilmiy va metodik saviyada qo'yish, darsda mazkur o'quv muammolaridan samarali foydalanishga erishish, o'quvchi-talabalar faoliyatini muammolarni hal etishga yo'naltirishdan iborat bo'ladi.

Muammoli vaziyatlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarida: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda foydalanish mumkin. Muammoli vaziyatlar tizimi muvaffaqiyatli yaratilgan hollarda mazkur mavzuni muammoli dars shaklida o'tish tavsiya etiladi. O'qitish jarayoniga muammoli darslarni qo'llash uchun o'qituvchi (pedagog) quyidagi masalalarni hal qilishi kerak bo'ladi:

- o'quv dasturi bo'yicha qaysi mavzularni muammoli dars shaklida o'tish mumkinligini;
- mavzu matnidagi masalalar bo'yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlarni aniqlash, bunda didaktikaning ilmiylik, sistemalilik, mantiqiylik, ketma-ketlik, izchillik tamoyillariga amal qilishi;

- o'quvchi-talabalar bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta'minlaydigan vosita va usullarni aniqlashi, ulardan o'z o'rnida va samarali foydalanish yo'llarini belgilashi zarur.

O'quvchi-talabalarning faoliyati muammoli vaziyatlarni idrok etish, hal qilish usullarini izlash, muammoni tahlil qilib, taxminlarni ilgari surish va ularni ilmiy, mantiqiy nuqtai nazardan asoslash, tekshirish va xulosa chiqarishdan iborat bo'ladi. Hozirgi zamon muammoli darslarning didaktik maqsadi quyidagilardan iborat:

- o'quv muammolarini hal etishda o'quvchi-talabalar tomonidan avval o'zlashtirgan bilimlarini ijodiy qo'llab, yangi bilimlarni egallash ko'nikmalari;
- bilimlarni ijodiy o'zlashtirish va amalda qo'llash malakalari;

- izlanuvchanligi, qiziqishi, motivlari, mantiqiy tafakkuri, ijodiy faoliyati, aqliy kamoloti, zakovatini rivojlantirishdan iborat.

Muammoli mashg'ulotda muammoli vaziyat bo'lishi nazarda tutiladi va an'anaviy darsning hamma bosqichlarini o'z ichiga oladi: uy vazifasini tekshirish, maxsus og'zaki mashqlar, o'quvchi-talabalar oldiga dars maqsadini qo'yish, yangi o'quv materialini tayyorlash va uni o'rganish, yangi va ilgari o'rganilgan materialni bog'lab mustahkamlash, mashg'ulotni yakunlab, uyga vazifa berish kabilar. Muammoli mashg'ulotlarda yangi o'rganilayotgan qonun-qoidaga oid faktlar to'plash, ularni bir-biri bilan taqqoslash va tahlil qilish, bilimlarni o'rganish va mustahkamlash jarayoni parallel ravishda olib boriladi.

Ta'limda muammoli o'qitishning uch sharti mavjud:

1. Muammoli ta'limni tashkil etishda o'quv materiallarini tizimli, tartib bilan rivojlantirish;

2. Vazifa berilganda uni yechish usullarini tanlash imkoniyatini berish;

3. O'quvchi-talaba bilim olishni maqsad qilib qo'yishi va maqsadiga erishishi uchun o'z bilimlarini to'g'ri baholay olishi.

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatni yuzaga keltirishda bir qator didaktik maqsadlar ham ko'zda tutiladi, ya'ni:

- o'quvchi-talabalar diqqati o'quv materialiga tortiladi;

- o'quvchi-talabalarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otish;

- ularning o'zlashtirish faoliyatini jonlantirish;

- ularning oldiga aqliy faoliyatni rivojlantiruvchi masalalar qo'yish;

- o'quvchi-talabalar o'rganishi mumkin bo'lgan bilimlar yetarli darajada emasligini dalillarga asoslangan holda ko'rsatish;

- o'quv materiallarini tahlil etishga o'rgatish;

- o'qitishdagi muammolarni hal etishning yo'llarini topishda ularga ko'mak berish.

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar bir necha turga bo'linadi:

1. O'quvchi-talabalar o'z oldilarida turgan masalaning yechimini topa olmaydi, muammoli savol yuzaga kelganda unga o'z vaqtida javob bera olmaydi, yangi mavzuni tushunishda ancha qiyinchiliklarga duch keladi;

2. O'quvchi-talabalar oldin egallagan bilimlarini yangi sharoit va vaziyat yuzaga kelganda qo'llay olmaydilar;

3. Ularning muammoni nazariy yo'l bilan hal etish va bu tanlangan usulni amalga oshirishi o'rtasida qarama-qarshiliklar vujudga keladi;

4. O'quvchi-talabalar amalda bajargan topshiriq natijalari bilan o'zlarining nazariy jihatdan tushunib yetishlari o'rtasida bilimlarining yetishmasligi ham muammoli vaziyatlar yuzaga kelishiga olib keladi [3].

Shunday qilib, muammoli ta'lim o'quvchi-talabalarning bilim tizimlari va aqliy hamda amaliy faoliyatlarida samarali o'zlashtirishga yordam beradi, o'zlashtirgan yangi bilimlaridan kelajakdagi vaziyatlarda unumli foydalana olish, ta'lim muammolarini yecha olish, mustaqil izlanishga o'rgatish, ijodiy tajribaga ega bo'lish va uni rivojlantirish, ta'lim jarayonining vazifalarini tahlil qilish, muammoli ta'limni aniqlash imkoniyatlarini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.N.Azizxo'jayeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2003.

2. R.J.Ishmuhammedov. Innovatsiya texnologiyalari yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: TDPU, 2004.

3. O.Roziqov, S.Og'ayev, M.Mahmudov, B.Adizov. Ta'lim texnologiyasi.–T.: O'qituvchi, 1999.